

Abdullaev Ziyodbek Mansurovich,
Farg‘ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: abdullaevziyod@gmail.com

O‘ZBEK TILIDA ANTROPOFORMANTLAR VA ULARNING KONNOTATIV MA’NO XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqola o‘zbek tili antropoformantlari va ularning konnotativ ma‘no xususiyatlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda *-boy*, *-bek*, *-xon* kabi shakllar, ularning tarixiy shakllanishi va ulardagi semantik-formal o‘zgarishlar tahlil etilgan. Maqolada ismlarga qo‘shilib, ularga qo‘shimcha konnotativ ma‘no yuklovchi birliklar *antropoformantlar* deb nomlanadi. Muallif antropoformantlarning bir necha turlari va har bir antropoformantning bir necha konnotativ ma‘no xususiyatlarini aniq misollar asosida yoritib bergan. Mavzuni tadqiq etishda nafaqat o‘zbek, rus va qardosh xalqlar tilshunoslari ilmiy ishlariga murojaat qilingan, balki jahon tilshunoslari tomonidan tahlilga tortilgan mavzu bo‘yicha qarashlar o‘rganilgan holda xulosa chiqarilgan. Ilmiy maqolada erishilgan natijalar internet va badiiy adabiyotdan olingan misollar yordamida asoslangan.

Kalit so‘zlar: anthropoformant, konnotativ ma‘no, o‘zbek tili, desementizatsiya, fors-tojik tili

Абдуллаев Зиёдбек Мансурович,
Доктор философии (PhD) по филологии, Ферганский государственный университет
Электронная почта: abdullaevziyod@gmail.com

АНТРОПОФОРМАНТЫ И ИХ КОННОТАТИВНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ.

Аннотация: Статья посвящена антропоформантам узбекского языка и их коннотативному значению, в которой анализируются такие формы как *-бай*, *-бек*, *-хан*, их историческое формирование и их семантико-формальные изменения. В статье единицы, добавляемые к именам и придающие им дополнительное коннотативное значение, названы антропоформантами. На

конкретных примерах автор объяснил несколько типов антропоформантов и некоторые коннотативные особенности каждого антропоформанта. При исследовании темы были привлечены не только научные труды лингвистов узбекского, российского и братских народов, но также изучены мнения мировых лингвистов по теме и сделан вывод. Результаты, полученные в научной статье, основаны на примерах, взятых из Интернета и художественной литературы.

Ключевые слова: антропоформант, коннотативное значение, узбекский язык, десементация, персидско-таджикский язык.

Abdullaev Ziyodbek Mansurovich,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Fergana State University
E-mail: abdullaevziyod@gmail.com

ANTHROPOFORMANTS AND THEIR CONNOTATIVE MEANINGS IN THE UZBEK LANGUAGE

Abstract: The article is devoted to the anthropoformant of the Uzbek language and their connotative meaning, in which forms such as -bay, -bek, -khan, their historical formation and their semantic-formal changes are analyzed. In the article, units added to names and giving them additional connotative meaning are called anthropoformants. Using specific examples, the author explained several types of anthropoformants and some connotative features of each anthropoformant. When researching the topic, not only the scientific works of linguists of the Uzbek, Russian and fraternal peoples were involved, but also the opinions of world linguists on the topic were studied and a conclusion was drawn. The results obtained in the scientific article are based on examples taken from the Internet and fiction.

Key words: anthropoformant, connotative meaning, Uzbek language, Desemantization, Persian-Tajik language

Kirish: O‘zbek tilida –bek, -jon, -boy, -xon, -oy kabi komponentlar antroponimlarga qo‘shilgan holda turli qo‘shimcha ma’no, jumladan, oilaviy yaqinlik, erkalash, hurmat ifodalanishiga xizmat qilishi mumkin. Yuqoridagi –bek, -boy, -xon antropoformantlari tarixan jamiyatda yuqori hukmron qatlam vakili unvonini anglatagani holda, bolaga shu insonlar kabi yuqori martabalariga erishsin degan istak-xohish motivi asosida mazkur komponentlar bola ismiga qo‘shilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Onomastik tadqiqotlarga mazkur antropoformantlar turli nomlar bilan ataladi. Begmatov o‘zining 1965-yil yozilgan dissertatsiyasida ularni “subyektiv ma’no anglatuvchi suffikslar” [3], 2013-yil nashr etilgan asarida esa “antropoindikator” deb nomlaydi [5]. Sapayev esa ularni “erkalash shakllari” deb ataydi. Qozoq tili antroponimlarini o‘rgangan Jonuzoqov esa jon, bek, boy, xon kabilarni mustaqil so‘z sifatida ta’riflaydi [6]. Bizning tadqiqot ishimizda esa ular shaxs nomi yasovchi hamda jinsni ko‘rsatuvchi element sifatida tahlil etilgani holda antropoformant nomi ostida tadqiq etiladi. Mazkur antropoformantlar mustaqil leksik ma’noli so‘z sifatida ham qo‘llaniladi va bunga parallel tarzda qo‘shimcha konnotativ ma’no ifodalanishiga xizmat qilgani uchun polifunksionallikka ega til birligi hisoblanadi.

Maqolani mavzusiga oid muammoni tahlil qilishda mavzuga oid ilmiy manbalarni tavsifiy va tahliliy o‘rganish, antropoformantlar semantik-formal xususiyatlarini tarixiy manbalar asosida bugungi kun nuqtai-nazaridan tahlil etish kabi tadqiqot usullari va metodlaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar: *Bek, boy, xon* dastavval ismlar bilan kelganda ism egasining ijtimoiy mavqei va unvonini anglatgan. Z.M.Boburning “Boburnoma”sida *bek* ma’lum bir kichik aholi yashovchi xududni boshqaruvchi shaxsni anglatuvchi unvon vazifasida qo‘llangan: *Ali Darvesh Bek, Muhammad Bakir Bek*

Samarqand Beklarining hurmatini aynan burungidek joyiga qo‘ydim.

Boburnoma asari yozilgan 15-asrda 'bek' unvoni faqat hukmron doira vakillari nomiga qo'shib aytilgan va u oddiy aholi vakillari ismlaridan so'ng qo'shib aytilmagan.

Faqatgina 1917-yil Oktyabr inqilobi va yangi sovet respublikalari tuzilishi voqealari ortida boy qatlam vakillarining quloq qilinishi natijasida *bek*, *boy*, *xon* kabi unvon anglatuvchi so'zlarning asl ma'nolari chekingan holda, ularning qo'shimcha ikkinchi yaqin munosabat, erkalash, hurmat ma'nolari oldingi fonga chiqadi. Kononov ham ayrim ot turkumiga xos so'zlar desementizasiyalashuv orqali qo'shma ot yasovchi komponent sifatida qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlaydi:

Aniq bir ot turkumiga xos so'zlarning atoqli ot tarkibida qo'llanilishi natijasida ikkinchi komponent desementizatsiyasi kuzatiladi va u so'z yasovchi affiks vazifasini bajara boshlaydi: -boy Teshaboy, Yo'ldoshboy; og'zaki nutqda boy voy shaklida ishlatiladi: Teshavoy; -jon: Ahmadjon, Karimjon; -xon: Salimxon, Salimaxon. [4, 131]

Gap *bek* leksemi haqida ketar ekan, *o'zbek* atamasiga ham to'xtalib o'tish joiz deb topdik. Bilamizki, *o'zbek* etnonimi o'z va bek komponentlaridan iborat. Gafurov Radlov fikrlariga asoslanib, o'z komponenti nafaqat olmosh, balki leksik ma'no anglatuvchi ot ham ekanligini ta'kidlaydi. Qadimgi turkiy tilda 'o'z' `asos, o'zak, mahiyat, yurak` ma'nolariga ega bo'lgan. O'zbek ismi esa "kuchli qalbli inson" ma'nosiga ega. [3] O'zbek so'zi shaxs nomlarini ifodalashi ham mumkin va bu asosan turkiy tilli xalq vakillari nomlari orasida uchraydi.

O'zbek Oyim eriga yalinib boshladi

(Abdulla Qodiriy)

Turk familiyasi sifatida

Der deutsch-türkische Profi Baris Özbek (23) sollte laut türkischen Medienberichten gegen seinen Willen verheiratet werden!

„Nemis-turk professional futbolchisi Baris O‘zbek turk matbuot vakillari xabariga ko‘ra o‘z xohishiga qarshi holda uylantirilayotgan bo‘lishi mumkin.“

(www.bild.de)

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, bugungi kunda unvon anglatuvchi so‘zlar asosidagi antropoformantlar ismlarga qo‘shilgan holda asosan hurmat, erkalash, yaqin munosabat kabi konnotativ ma’nolarini ifodalashga xizmat qilmoqda.

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan *-jon* antropoformanti ismlarga qo‘shilgan holda oilaviy yaqin munosabat, yo hurmat ma’nolarida qo‘llaniladi. Mazkur element o‘rta asr yozma manbalarida ham hurmat ma’nosida ishlatilgan.

Jahongir Mirzoning samarqandlik Mirjon ismli bir hafizi bor edi. (Z.M.Bobur „Boburnoma“)

Vengriyalik turkshunos olim Bodrogligeti o‘zining o‘zbek tili grammatikasiga bag‘ishlangan ikki tomli risolasida *jon* komponentiga suffiks sifatida ta’rif beradi: „The suffix –*жон* comes from Persian-Tajik (cf., P. *jan* ‘life, soul, beloved’). It is used as a diminutive or endearing suffix on noun bases.“ [2, 106]

“Jon suffiksi fors tojik tilidan olingan bo‘lib, u diminutiv yoki erkalash qo‘shimchasi sifatida otlarga qo‘shiladi.”

Jon antropoformanti odatda erkak ismlariga qo‘shiladi va quyidagi ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi:

a) Oilaviy yaqinlik

Qani kiringlar, Anvarjon, boshla uyga. (Tohir Malik)

b) Yaqin munosabat

E keling, Zohidjon, yangi yillar qutlug‘ bo‘lsin. (Tohir Malik)

c) Hurmat

Men ertadan keyin Bog'donga ketaman, Rahimjon, shuning uchun bugun Shafrinni ko'rishim kerak. (Abdulla Qahhor)

Agar *jon* komponenti *Jontemir*, *Jonpo'lat* kabi qo'sh ismlar birinchi komponenti bo'lib kelganda, yuqoridagi ma'nolar ifodalamaydi. Bunday ismlar ism beruvchining tug'ilgan bola joni temir va po'latdek mustahkam bo'lishi istagi motivi asosida yaratilgan, shuningdek bola tan-joni temirdek mustahkam bo'lib himoyalaniishi maqsad qilingan.

Jon shaxs ifodalovchi turdosh otlarga qo'shilishi va kontekstga ko'ra o'zaro yaqin munosabat, moyillik yoki yalinish qo'shimcha ma'nolar ifodalanishi mumkin.

- a) Opoqijon, quvonib o'tiribsizmi? – dedi Elchin kampirning duosini olgach (Tohir Malik)
- b) Jon oshnam, meni qiynama. (Tohir Malik)

Yuqoridagi birinchi gapimizda –jon opoqi apelyativiga qo'shilgan holda, unga yaqinlik, yaqin olish ma'nolari ifodalangan bo'lsa, (b) gapda esa jon oshna so'zi oldidan kelib yalinish ma'nosi ifodalangan.

Jon so'zi reduplikatsiyalashuvi orqali bajonudil, xohlab kabi ma'nosi ifodalanadi.

Eng lobar qiz ham unga jon-jon deb tegishi mumkin. (Tohir Malik)

-oy antropoformanti ayollar ismlariga qo'shilib o'zaro yaqin munosabat, hurmat kabi ma'nolarni ifodalaydi.

Cho'lponoy bilan Mushtariyning shu yerda o'rganganlari ayni rot. (Tohir Malik)

O'g'iloy Kamolova bosh miya xastaligi bilan og'rigan Mirzohid Xayrullayevning davolanishi uchun yordam so'radi.

Mustaqil so'z sifatida oy samoviy jism, yerning tabiiy yo'ldoshi ma'nosida ishlatiladi. Lekin oy so'zining shaxs nomi sifatida qo'llanilishi uning tarixan turkiy xalqlarda totem sifatida ulug'langanligiga ishora qiladi. Bugungi kunda esa oy go'zallik va chiroy ramzi sifatida ayollar ismiga qo'shiladi: Gulshanoy, Barchinoy

O'ninchini bitirgan [...] oy yuzli durkun qiz [...] sevib qolgan edi. (Tohir Malik)

Oy ayollar qo'sh ismlari birinchi komponenti vazifasida ham keladi: *Oysanam, Oyjamol, Oynigor*

Oysanam Erkaeva 1958-yil tug'ilgan. (Tohir Malik)

Oy komponenti orqali nafaqat ayollar ismlari (*Oyxon*), balki erkaklari ismi ham yasaladi: *Oybek*.

Unvon ma'nosini ifodalovchi *xon* zamonaviy o'zbek tilida asosan ayollar ismiga qo'shiladi. Respublikamizning Farg'ona vodiysida esa u erkaklar ismi bilan kelib yaqin munosabat, hurmat ma'nolarini ifodalashi mumkin. –*xon* antropoformanti qarindoshlik nomlariga qo'shib ayol yo erkak ismlari yasalishi mumkin: *Dadaxon, Enaxon, Otaxon, Boboxon* kabi.

Turkiy xalqlarda qo'llanuvchi unvon nomlarini Ramstedt ilmiy tahlil etgan. Uning fikricha, *xon* so'zi yuksak rivojlangan xitoy boshqaruv tizimi ta'siri ostida ushbu tildagi *kuan* `boshqaruvchi, prefekt/rahbar` so'zining turkiy va mongol tillariga o'zlashtirilishi orqali shakllangan. [6, 59-62] Shuningdek, xitoyga yondosh koreys tilida ham yuqoridagi ma'noli *kwan* `mansabdor/rahbar` atamasi mavjud. Turkiy, arab va fors-tojik tillari antroponimlarini tadqiq etgan Gafurov ta'kidlashicha, milodiy 999-yil bugungi Markaziy Osiyo hududida hokimiyat tepasiga Qoraxoniylar kelganidan so'ng unvon ma'nosini anglatuvchi *xon* atamasi qo'llanila boshlangan. Keyingi asrlarda esa bu atama bugungi Eron, Afg'oniston va Hindiston hududlariga tarqalgan. Bu hududlarda *xon* qabila boshqaruvchi va qo'mondoni ma'nolarini anglatgan. Turk va mo'g'ul xalqlarida esa u hukmdorni ifodalagan. [3, 34]

Musulmonqul xon bo'lmasa ham xonlikdanda yuqori bir kuchka molik bo'lgan...
(Abdulla Qodiriy)

Xonning ayoli xonim deb nomlangan: Nigor Xonim, Sulton Xonim, Mehri Xonim

Xonimlar va Xondan xatlar, arzimas sovg'a keltirdi. (Z.M.Bobur "Boburnoma")

Zamonaviy o'zbek tilida ayollar ismiga xonim komponenti qo'shilgan holda hosil bo'lgan Oyxonim, Norxonim, Asalxonim kabi antroponimlar mavjud.

Hamma ular orasida Xalimaxonimi qaysi Tamaraxonimi qaysi deb bir-birlaridan so'rashardi.

(Said

Ahmad)

Zamonaviy o'zbek tilida xonim so'ziga *–cha* kichraytirish qo'shimchasi qo'shilgan holda kinoya, piching ma'nosi ifodalanishi mumkin.

Bu xonimcha chindan ham Zeli og'ani biladi. (Tohir Malik)

-boy antropoformanti erkaklar ismiga qo'shib yaqin munosabat, hurmat kabi ma'nolarni ifodalaydi. Mustaqil so'z sifatida *boy* yashash uchun barcha qulaylik, shart-sharoitlarga egalikni bildiradi. Lekin bu so'z yarim suffiks sifatida desemantizatsiyalashgan va *–xon*, *–jon* kabi qo'llaniladi. [4]

Agar g'alva qilsa, singlisi boy erdan, o'zi boy kuyovdan ajralib qolishi mumkin edi. (Tohir Malik)

O'zbek tilida boshqa ko'plab turkiy jumladan, Uyg'ur, Gagauz kabi tillarida ham *–boy* antropoformanti erkaklar ismiga qo'shib hurmat ma'nosini bildiradi. [5]

Elchinboy, sizni [...] hech kim to'yga aytmadimi? (Tohir Malik)

Dastavval *boy* insonni anglatgan *boy* leksemasi Begmatov ta'kidlaganidek, XVI-XVII asrlardan inson nomlariga qo'shila boshlagan. Uning og'zaki nutqdagi shakli *–voy* bo'lib kontekstga qarab turlicha qo'shimcha ma'nolar ifodalanishiga xizmat qiladi.

(a) Yaqin munosabat

Jamshidmi? Sunnatvoyning o'g'lini aytyabsizmi? (Tohir Malik)

(b) Mana, xoy Qo'shqorvoy, Sattorqul, Yo'lchivoy (Abdulla Qahhor)

(c) Kinoya – Solivoy, ishni boplabsan-ku!

Shuningdek, boy leksemasi o'g'zaki nutqda murojaat shakli vazifasida keladi.

Boy, men anchadan beri qarta o'ynamayman (Tohir Malik)

Yoki quyidagi gapda kinoya ma'nosi anglashiladi:

Boy, jensovetga rais bo'lgan emishsanmi? (Tohir Malik)

Yuqorida keltirilgan tashqari boy so'zi I shaxs birlik egalik qo'shimchasi orqali o'zbek tilining ayrim shevalarida turmush o'rtoq/er ma'nosida keladi:

Boyim uyda yo'q edilar. (O'TIL)

Och kishi moy tanlamas, qari qiz boy. (O'TIL)

Qo'shismlar tarkibida birinchi komponent bo'lib kelganda boy antropoformanti ism egasining boy bo'lishi niyat qilingan bo'ladi.: *Boymuhammad, Boymurod, Boydada* kabi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, ism yasovchi antropoformantlar asosan mustaqil leksemalar asosida shakllangan va ular orqali ismga qo'shimcha konnotativ ma'nolar ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev Z. Usbekische Personennamen-Etymologie, Grammatik, Pragmatik : Diss. – 2021.
2. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент, 2013. – Б. 264
3. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дис. канд. филол. наук. – Тошкент: Фан, 1965;
4. A.Bodrogligeti. *An academic reference grammar of modern literary Uzbek*. Bd. 1 - 2. LINCOM studies in Asian linguistics. Bd. 50, 51. Munchen: Lincom Europa. 2007, p.106
5. Гафуров А. Имя и история. Об именах арабов, персов, таджиков и тюрков [Текст] : словарь / А. Г. Гафуров. - М.: Наука, 1987. С. 34.
6. Джанузаков Т. Д. Очерк казахской ономастики. — Алма-Ата, 1982.
7. Кононов А. Грамматика узбекского языка. – Т.: Госиздат, 1960. – С. 131.

8. Ламожапова И.А. Исконные личные имена у монгольских народов: структура, семантика: Учебное пособие. - 2-е изд-е, исправл. и доп. - Чита: Изд-во ЗабГГПУ, 2008. - 139 с.
9. Ramstedt, G.(1951): Alte turkische und mongolische Titel, in: *Journal de la Societe Finno-Ougrienne*, Helsinki, Vol.55., S. 59-82.